



**O'ZBEK TILINI CHET TILI SIFATIDA O'QITISHDA
LINGVOMADANIY KOMPETENSIYANING O'RNI**

Norboyeva Madina Diyor qizi

Chirchiq oly tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti

Tillar kafedrasи o'qituvchisi

norboyevamadina59@gmail.com

Har qanday davlatning taraqqiyoti, rivojlanish yo'li, xalqning faravonligi shu davlatda yoshlar ta'lif-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tiborning darajasi bilan o'chanadi. Dunyo axborot makonidagi xabarlar oqimi, ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy global tahdidlar xavfi keskin oshib borayotgan, shu bilan birga axborotlar va innovatsion texnologiyalar, inson intellekti rivojlanib borayotgan hozirgi davrda O'zbekistonimizda ham yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'naliшlaridan biriga aylandi, desak xato qilmagan bo'lamiz. Mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o'z qat'iy pozitsiyasiga ega, amalga oshirilayotgan islohotlarga, yurtning kelajagiga befarq bo'limgan, tashabbuskor va maqsadga intiluvchan, vatanparvar komil shaxslar sifatida tarbiyalash O'zbekistonning dunyodagi eng rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishining eng muhim omili ekanini mamlakat rahbariyati yaxshi angldi.

Ta'lif samaradorligiga erishish tushunchasi pedagoglik faoliyatimizdag'i asosiy masalalardan biri bo'lib, doimiy ravishda o'qitish jarayonlarini qanday tashkil qilsam, qanday saboq bersam, qay usullarda yondoshsam talabalarim tilni yetaricha o'zlashtiradilar, qiziqishlarini orttira olaman degan muammoga duch kelamiz va uning yechimlarini izlaymiz. Shu o'rinda, tajribali pedagoglarimizning o'qitishda fandagi mavzular emas, balki shu mavzularni o'rgatishda qo'llaniladigan metodlar asosiy hisoblanadi, degan fikrlarini eslash joizdir. Shuning uchun bo'lsa



kerak, o‘qitishning usullari doimiy yangilanib, rivojlantirilib kelindi va ular amalda qo‘llanish xususiyatiga, beradigan ta’limiy samarasiga ko‘ra biri-biridan tubdan farqlanadi.

Bugungi kun ta’lim sohasiga e’tibor beradigan bo‘lsak, o‘qitishning ikki yo‘nalishi bir vaqtning o‘zida uyg‘unlashtirilgan holda va parallel ravishda o‘quv jarayonlarini keng qamrab oldi, desak xato qilmaymiz. Qaysi davr yoki qaysi bir o‘qitish yo‘nalishi bo‘lmashin, ta’limda o‘qitishning eng samarali usullari sifatida *muammoli o‘qitish* usullari, ya’ni:

- tanqidiy fikrni rivojlantiruvchi o‘qitish;
- rivojlantiruvchi va hamkorlikda o‘qitish;
- tabaqalashtirib o‘qitish kabi usullardan keng foydalanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti, O‘zbekiston Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.M.Mirziyoyevning oliy harbiy o‘quv yurtlari pedagoglari hamda ofitserlar tarkibiga bo‘lgan talablariga ko‘ra “... Harbiy bilim yurtlarida harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini eng yangi metodlar asosida takomillashtirish borasidagi uzlusiz ishlarimiz dolzarb ahamiyatga egadir. Vatanga sodiq, harbiy bo‘linmalarga komandirlilik qilish qobiliyatiga ega, tezkor harakatlanib, murakkab taktik vaziyatda mustaqil, nostonart qaror qabul qila oladigan va o‘z shaxsiy namunasi bilan shaxsiy tarkibni o‘quv-jangovor vazifalarni bajarishga yo‘naltiruvchi, harbiy faoliyat bilimlarini chuqr biluvchi, yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga, keng dunyo qarashga, yuqori intellektual va kasbiy malakaga, o‘ziga ishonib topshirilgan harbiy texnikani to‘g‘ri ishlata va saqlay oladigan ko‘nikmalarga ega komandir, mutaxassislarga ta’lim va tarbiya berishdek murakkab vazifani bajarish uchun mas’uldirlar” [1].



Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Ta’lim tizimini isloq qilish, uni 2030-yilgacha yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi konsepsiya ishlab chiqildi. Ushbu konsepsiya binoan, zamonaviy va modernizatsiyalashgan umumiy o‘rtat-a’lim maktablarini ochish, barcha o‘quv yurtlarini sifatli, moddiy- texnik ba’zalar bilan ta’minlash, pedagoglar uchun zamonaviy tendensiyalar orqali kompetentlikni oshirish haqida vazifalar yuklatildi.

Shunday ekan, biz doimo ajdodlarimiz va fan arboblarimizdan farqlanibgina qolmay, aksincha ularning buyuk geografik kashfiyotlari hamda sharq allomalarining va ma’naviy, ilmiy yo’nalishlari asosida faoliyatini olib borib bizgacha me’ros qilib qoldirgan bitmas-tuganmas xazinalari borasida, qolaversa ularning yo’llarini davom ettirishimiz lozim. Darhaqiqat, ushbu yuqorida ta’kidlab o’tilgan iliq gaplar, hech bir millatni befarq qoldirmaydi deb o‘ylayman.

Albatta islohotlarning mevasi shirinligi-bog‘bonning to‘g‘ri va yaxshi parvarishlayotganidan dalolat beradi. Bunda o‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, yoshlarimiz birinchi navbatda ta’lim-tarbiyani yaxshi olganligi, yoxud yaxshi tahsil olayotganligidadir. Zero: ”Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir”. Ushbu ajoyib misralar, xalqimizning serqirra ijodkorlaridan biri bo‘lgan, xalq uchun ilm-u ma’rifat yo’lida zahmat chekkan komil shaxs- Abdulla Avloniy bobomiz qalamiga mansub bo‘lib, bunda tarixiy voqealar va ta’lim tarbiyalarni ko‘z o‘ngimizda gavdalantirilishi, aks ettirishimizga qaratilgan. Yana bir misol tariqasida uning ta’limiga oid boshqa bir fikrlarini izohlashimiz mumkin: “Maktab misni tillo qilur-maktab sizni mullo qilur!”. Bundan ko‘rinib turibdiki, ta’lim tizimini o‘qituvchi-o‘quvchi (ustoz-shogird an’anasi) faolliklarisiz, moddiy texnik ba’zalar va me’yoriy huquqiy standartlar, hujjatlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Biz esa, mana shu tarmoqlaridan



biri bo‘lmish, texnik vositalarning qanchalar zamonaviyligi va sifatliligi, qulayliligi va dolzarbliligiga e’tiboringizni tortmoqchimiz...

Butun bir 11- asr esa Aby Rayhon Beruniy bobomiz sharafiga nomlandi. Rus arabshunos olimi I.Krachkovskiyning “*Beruniy qiziqqan sohalarni sanashdan ko‘ra, qiziqmagan sohalarini sanab o‘tish osonroq. U zamonasining aniq fanlari sohasidagi barcha bilimlarni qamrab olgan, o‘z xalqi va davrining shon-shuhratini olamga taratgan hamda kelajak avlodlar uchun namuna bo‘lishga arzirli zot edi*” [6]degan olijanob fikrlaridan uning o‘ta mazmunli hayot yo‘li ko‘z oldimizda gavdalanadi. Ularning asarlari dunyoviy fanlarning rivojlanishiga poydevor bo‘ldi. Ular asosida ilm-fanning insoniyat taraqqiyotidagi ahamiyatini tushinib yetdik. Ayniqsa, o‘sha davrda Buyuk ipak yo‘li Sharqni butun dunyo bilan bog‘ladi, ilm-fanning, madaniyatning yoyilishi, ijtimoiy-siyosiy hayotning yuksalishiga zamin yaratdi. Bu davr Sharq sivilizatsiyasi davri - birinchi Renessans bo‘lib tarix salnomasiga kirib keldi.

Yurtimizda ijtimoiy tafakkur darajasining tobora o‘sishi bois, turmushning barcha jahbalarida mehnat va sohaga yondashuv madaniyati hamda mas’uliyati tubdan o‘zgardi. Ayniqsa, ilm-fanni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Fan – bu tafakkur bo‘lib, qaysiki, jamiyatdagi barqarorlikni ta’minlab beruvchi ustuvor omillardan biridir. Fan rivojlanar ekan, nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy-madaniy soha ham taraqqiy etadi. Fanga bo‘lgan e’tibor inson tafakkuri, ongi-shu’rinini o‘stirish va ulg‘aytirishga xizmat qiladi. Jamiyat tafakkuri o’ssa, madaniyat va san’at sohasi ham mana shu talablarga hamohang ravishda o‘sadi va taraqqiy etadi. Ajdodlar ana’nalariga sodiq biz yoshlar bugungi kunda xalqaro miqyosdagi fan olimpiadalari, jumladan matematika, kimyo, biologiya, informatsion texnologiyalari bo‘yicha fan olimpiadalarda mamlakatimiz shanini munosib himoya qilib, yuqori o‘rinnarni band qilmoqda.



Xulosa o‘rnida aytish joizki, mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga, ilm-ma’rifatga berilayotgan alohida e’tiborning zamirida chuqur ma’no bor. Yoshlar - bu kuch-qudrat, ilm-ma’rifat - bu yangi uyg‘onish davrining poydevori, ilm-fan rivojlanar ekan, nafaqat yurtimiz iqtisodiyoti, balki uning ijtimoiy-madaniy sohasi taraqqiyoti kafolatlanadi, mazkur kafolat esa o‘zida yangi renessans davrini ifoda etadi. O‘z sohasining yetuk mutaxassisni bo‘lishni ko‘ngliga tugib qo‘ygan biz yoshlar ajdodlarimiz bizga me’ros qoldirgan qadriyatlarni ma’naviyatimiz poydevori deb anglashimiz, Prezidentimiz va davlatimizning chaqirig‘lariga, bizga bildirgan ishonchiga labbay deya javob berishimiz, bobolalarimizning ulkan ma’rifiy-madaniy me’rosiga, ularning ibratli umr yo‘llariga nafaqat faxr tuyg‘usi bilan qarashimiz, balki ularni o‘rganishimiz, bu me’rosning ahamiyati yoshlar tarbiyasida nechog‘lik katta ekanligini anglab etishimiz va kelajak avlodlarga ham ularni asrlar osha asrab-avaylab etkazishni muqaddas burchimiz deb anglamog‘imiz lozim. Zero Ona Vatanimiz O‘zbekistonimizning ertangi kuni, istiqboli va ravnaqi har tomonlama idrokli, azmi qarori qat’iy barkamol yoshlarning salohiyatiga bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prezident Sh. Mirziyoyevning O‘zbekistan Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining o‘ttiz ikki yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagি tabrik so‘zi, Vatanparvar, 2024-yil, 14-yanvar.
2. “Ta’lim tizimini isloh qilish, uni 2030-yilgacha yanada rivojlantirish to’g’risida”gi konsepsiya 2017 y.



3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida qarori. 2020-yil, 6-noyabr, PQ-4884-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi.
5. Ta’lim to’g‘risidagi Qonun. T.: O‘zbekiston. 2020. 3-5 betlar.
6. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug’ xalqning ishi ham ulug’ hayoti yorug’ va kelajagi farovon bo‘ladi. T.: O‘zbekiston. 118-bet.
7. Abdulla Avloniy. “Turkiy guliston yohud axloq”. Toshkent. 1997 y
8. Uzluksiz ta’lim. Ilmiy-uslubiy jurnal. №2.Toshkent-2011. ISSN 2091-5594
9. Kasbiy malaka va pedagogik mahorat.O.Musurmonova va boshq.Toshkent-2009.
10. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Toshkent, “Ma’naviyat” 2008 yil.
11. Xazrat Jabborov. Uchinchi Renessans nima degani? Ilmiy maqola. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasи o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a’zosi.
12. С.Х.Сирожиддинов, Г.П Матвиевская. Ал-Хорезми- выдающийся математик и астроном средневековья. Москва.Изд. Просвещение, 1983 г.
13. Э.Тўрақулов, С.Рахимов. Абу Райҳон Беруний руҳият ва таълимтарбия ҳақида.Тошкент, “Ўқитувчи” нашриёти, 1992 йил.